

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILINI
RIVOJLANTIRISHDA YUZAGA KELADIGAN QIYINCHILIKLAR
(GAPIRISH KO'NIKMASI MISOLIDA)**

Abdurahmonova Firuza Shavkat qizi

Student of CSPU

firuzaabdurahmonova65@gmail.com

Abduvoqqosova Dildora Adil qizi

Student of CSPU

[*dildorag094@gmail.com*](mailto:dildorag094@gmail.com)

Aminova Sohila Abduhalimovna

Teacher of CSPU

aminovasohila@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilini rivojlantirish jarayonida duch keladigan asosiy qiyinchiliklar va ingliz tilida erkin gapirishga bo'lgan hayajonni yengish usullarini tahlil qilinadi. Bolalar ingliz tilini o'rganishda fonetik farqlar so'z boyligi cheklanganligi, grammatik murakkabliklar va kommunikativ qo'rquv kabi muammolarga duch keladilar. Ayniqsa, ingliz tilini o'zlashtirishda ishonchsizlik hissi o'quvchilarning faolligini pasaytiradi. Ularning til kompetensiyalarini o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish uchun o'yinlar qiziqarli dars metodlari, vizual materiallar va psixologik qo'llab-quvvatlash muhimligi ta'kidlanadi. O'qituvchilarning bolalarga motivatsiya berishi, ularga til o'rganish jarayonida xato qilishdan qo'rqqanlikni o'rgatish muhim omillardan biri ekanligi aytib o'tiladi. Shuningdek, til muhitni yaratish va o'quvchilarning muloqotga bo'lgan ishonchini oshirish uchun samarali strategiyalar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: vizual, kommunikativ, fonetika, , ko'nikma, samarali , nutq, grammatika, qiyinchilik, gapirish, yosh o'rganuvchilar, yosh guruhlari, rivojlantirish.

Abstract. This article analyzes the main difficulties faced by elementary school students in the process of developing English and how to overcome them to speak English fluently. Children face problems such as phonetic differences, limited vocabulary, grammatical difficulties, and communicative fear when learning English. In particular, the feeling of lack of confidence in mastering the English language reduces the activity of students. It prevents them from mastering language competencies. The article emphasizes the importance of games, interesting teaching methods, visual materials, and psychological support to overcome these problems. It is mentioned that one of the important factors is that teachers motivate children and teach them not to be afraid of making mistakes in the process of language learning. Also,

effective strategies are offered to create a language environment and increase students' confidence in communication.

Keywords: visual, communicative, phonetics, skill, effective, speech, grammar, difficulty, speaking, young learners, age groups, development.

Абстрактный. В данной статье анализируются основные трудности, с которыми сталкиваются ученики начальной школы в процессе освоения английского языка, и способы их преодоления, чтобы свободно говорить по-английски. При изучении английского языка дети сталкиваются с такими проблемами, как фонетические различия, ограниченный словарный запас, грамматические трудности и коммуникативный страх. В частности, чувство неуверенности в освоении английского языка снижает активность учащихся, мешает им овладевать языковыми компетенциями. В статье подчеркивается важность игр, интересных методов обучения, наглядных материалов и психологической поддержки для преодоления этих проблем. Отмечается, что одним из важных факторов является то, что преподаватели мотивируют детей и учат их не бояться ошибок в процессе изучения языка. Также предлагаются эффективные стратегии по созданию языковой среды и повышению уверенности учащихся в общении.

Ключевые слова: наглядность, коммуникативность, фонетика, навык, эффективность, речь, грамматика, сложность, говорение, младшие школьники, возрастные группы, развитие.

KIRISH

Bugungi kunda ingliz tili xalqaro muloqot vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilariga bu tilni o'rgatish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ1875-sonli qaroriga muvofiq chet tillarini, asosan, ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'qitish, ularni chet tillarini o'rgatishga bo'lgan intilishni yanada takomillashtirish uchun hamam umumta'lim maktablarda 1-sinfdan boshlab ingliz tili darslarini har xil qiziqarli o'yinlar tarzida o'qitish va shu bilan birga o'quvchilarning og'zaki nutqini ham shakllantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitishni zamonaviy, innovatsion usullar yordamida o'tish bosqichma-bosqich boshlandi.¹ Biroq, kichik yoshdagi bolalarning ingliz tilini o'rganish jarayonida turli qiyinchiliklarga duch kelishi kuzatiladi. Bu muammolar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, oiladagi muhitning ta'siri, lug'at boyligining cheklanganligi, talaffuz va tinglab tushunishdagi

¹ O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «CHet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1875son Qarori. – Xalq so'zi. – № 240 (5660). – Toshkent, 2012.

qiyinchiliklar kabi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilini o'rganish jarayonida duch keladigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Asosiy muammolar qatorida talaffuzdagi xatoliklar, lug'at boyligining cheklanganligi grammatik qoidalarini to'g'ri qo'llashdagi qiyinchiliklar hamda muloqotga yetarli imkoniyat bo'lmasligi kiradi. Shuningdek, o'quvchilarda do'stona va qulay muhit yaratish ularning ingliz tilida muloqotga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi hamda ingliz tilida erkin so'zlashish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda turli qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Birinchidan yosh bolalar uchun chet tilida muloqot qilish tabiiy jarayon emas, chunki ular hali ona tilida ham to'liq gapirishni mukammal egallamagan bo'lishi mumkin. Bu esa ularning chet tilini o'rganishda sekinroq rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Ikkinchidan talaffuzdagi qiyinchiliklar boshlang'ich sinf o'quvchilari ingliz tilidagi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu asosan, ona tilining fonetik xususiyatlari bilan bog'liq. Masalan, ingliz tilidagi ba'zi tovushlar o'zbek tilida uchramaydi, bu esa ularning to'g'ri talaffuz qilinishini qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, ingliz tilining stress va intonatsiya tizimi ham bolalar uchun murakkab hisoblanadi. Bolalar yangi tovushlarni talaffuz qilishda qiynalishlari mumkin. Har bir tilning o'ziga xos fonetik tizimi bor va ayrim inglizcha tovushlar o'zbek tilida uchramaydi. Masalan, "th" tovushi o'zbek tilida yo'q bo'lgani sababli bolalar uni to'g'ri talaffuz qilishda muammoga duch kelishadi. Talaffuzni yaxshilash uchun audio matnlarni tinglab, ularni qayta o'qishga harakat qilish, onlayn talaffuz vositalaridan foydalanib, so'zlarni to'g'ri aytishni o'rganish, o'z nutqini yozib, uni asl talaffuz bilan solishtirish kerak bo'ladi. O'quvchilarga har xil chet tilidagi kino yoki multfilmlarni subtitrlar orqali qo'yib berish va tomosha qilib bo'lgach ulardan mazkur film haqida gapirib berishini talab qilish (retelling). Bu usul o'quvchilarning erkin fikrlarini bayon qilishiga va ularning yangi so'zlarni o'rganishiga imkoniyat yaratadi.

Uchinchidan lug'at boyligining yetishmasligi ingliz tilida muloqot qilish uchun yetarli so'z boyligiga ega bo'lish muhim sanaladi. Ammo boshlang'ich sinf o'quvchilari cheklangan lug'at zaxirasiga ega bo'lganliklari sababli gapirishda qiynaladilar. Ular yangi so'zlarni eslab qolishda qiyinchiliklarga duch keladilar va o'rgangan so'zlarini nutqda qo'llashda ikkilanadilar. Yangi so'z va iboralarni o'rganish gapirishni qulaylashtiradi. Buning uchun har kuni bir nechta yangi so'zni yodlab, ularni gaplarda qo'llash, tematik lug'atlar tuzib, mavzular bo'yicha so'zlarni eslab qolish, amaliyot jarayonida bilmagan so'zlarni yozib borib, keyin ularni o'rganish samarali usullardan biri hisoblanadi. Agar bola yetarli so'zlarni bilmasa, o'z fikrini aniq va ravshan ifoda eta olmaydi. Natijada, gapirish jarayoni sekinlashadi va

bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi pasayishi mumkin.²

To'rtinchidan psixologik to'siqlar ko'plab bolalar chet tilida gapirishdan tortinishadi. Ular xato qilishdan qo'rqib, o'z fikrlarini erkin ifoda eta olmaydilar. Bu muammo ko'pincha noto'g'ri baholash tizimi yoki o'qituvchilarning tanqidiy yondashuvi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Agar o'quvchilar o'zlarini erkin his qilmasalar, ular ingliz tilida gapirishdan qochadilar va bu ularning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bolalarda psixologik to'siqlar bo'lishi ham tabiiy holat. Ular xatolik qilishdan qo'rqishi yoki sinfdoshlarining oldida gapirishdan tortinishi mumkin. Bu esa ularning amaliy nutqiy tajribalarini kamaytirib, o'z fikrlarini ingliz tilida erkin ifodalashlariga to'sqinlik qiladi.

Beshinchidan o'qitish metodlarining yetarli samarador emasligi ba'zi hollarda o'qitish metodikasi ham o'quvchilarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirishga to'sqinlik qilishi mumkin. Agar darslar asosan grammatikaga asoslangan bo'lsa va interaktiv mashg'ulotlar kam bo'lsa, o'quvchilar amaliy mashqlar orqali tilni o'zlashtira olmaydilar. Shuningdek, o'yin va rolli o'yinlar kabi interfaol usullarning kamligi ham muloqot qilishga bo'lgan ishtiyoqni pasaytirishi mumkin. o'qitish metodikasining to'g'ri tanlanmasligi muhim omillardan biridir. An'anaviy dars usullari, faqat grammatikaga asoslangan yondashuvlar bolalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirishga yetarli darajada yordam bermaydi. Chunki bolalar tabiiy muloqot jarayonida til o'rganishga ko'proq moyil bo'ladilar.

Oltinchidan muhit va amaliyot yetishmovchiligi ingliz tilini o'rganish jarayonida muloqot muhiti muhim o'rin tutadi. Agar o'quvchilar darsdan tashqari ingliz tilida gaplashish imkoniyatiga ega bo'lmasa, ularning nutqiy ko'nikmalari rivojlanishi sekinlashadi. Oilada yoki jamiyatda ingliz tilidan foydalanish imkoniyati kam bo'lsa, bolalar tilni faqat nazariy o'rganish bilan chegaralanib qoladilar. muhitning yetarli darajada shakllanmaganligi ham muammo hisoblanadi. Agar bolalar faqat dars davomida ingliz tilida gapirishga harakat qilsalar, bu yetarli natija bermaydi. Uyda, maktabdan tashqarida yoki do'stlari bilan ingliz tilida muloqot qilish imkoniyati cheklangan bo'lsa, gapirish ko'nikmalari rivojlanishi qiyinlashadi.

Yettinchidan motivatsiyaning pastligi motivatsiya har qanday tilni o'rganishda katta rol o'ynaydi. Agar o'quvchilar ingliz tilini o'rganishga yetarlicha qiziqish bildirmasalar, ular gapirish amaliyotiga e'tibor qaratmaydilar. Motivatsiya yetishmovchiligi ko'pincha darslarning zerikarli bo'lishi yoki darsliklarning qiziqarlilik darajasi past bo'lishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, og'zaki nutqni rivojlantirish uchun o'yinlarning turlari ham mavjud.

Rol o'ynash o'yinlari: O'quvchilar turli vaziyatlarda ingliz tilida muloqot qilishni o'rganadilar (masalan, do'konda xarid qilish, restoranda ovqat buyurtma berish).

² <https://cyberleninka.ru/article/n/maktab-o-quvchilarining-chet-tilida-gapirishko-nikmasini-rivojlantirish-yollari/viewer>

So'z o'yinlari: So'zlarni tez va aniq aytish, lug'at boyligini oshirish uchun o'ynaladigan o'yinlar (masalan, "Charades" yoki "Pictionary").

Kvizlar va viktorinalar: O'quvchilar o'z bilimlarini tekshirib, og'zaki nutqni rivojlantiradilar.

"Find someone who..." o'yinlari: O'quvchilar bir-birlari bilan so'zlashib, turli savollar berish orqali muloqotda bo'lishadi.³

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish hozirgi ta'lim tizimining dolzarb masalalaridan biridir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yosh avlodga puxta ta'lim berish – davlatimiz kelajagiga qo'yilgan mustahkam poydevordir." Shu sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tillarini, xususan, ingliz tilini o'rganishlari uchun samarali usullarni joriy etish muhimdir. Ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish jarayonida bir qator qiyinchiliklar kuzatiladi. O'quvchilarning lug'at boyligi yetarli darajada emasligi ularning erkin so'zlashishiga to'sqinlik qiladi. Talaffuzdagi kamchiliklar ularning ishonchsiz gapirishlariga sabab bo'ladi. O'quvchilar muloqot muhitining yetarli emasligi sababli ingliz tilida fikr bildirishdan tortinib qoladilar. Shuningdek, psixologik muammolar ham muhim omil hisoblanadi. Ba'zi bolalar xato qilishdan qo'rqishadi va shu sababli gapirishdan o'zlarini tiya boshlaydilar. Prezidentimiz aytganidek, "Ta'lim jarayonida har bir bola o'z qobiliyatini namoyon etishi uchun sharoit yaratish zarur." Shu bois, o'quvchilarning o'zlarini erkin his qilishi uchun motivatsiya berish va rag'batlantirish lozim. O'quvchilarning ingliz tilida bimalol muloqot qilishlari uchun dars jarayonida o'yinlar, rolli sahnalar va dialoglardan keng foydalanish kerak. Bundan tashqari, video va audio materiallardan foydalangan holda tabiiy til muhitini yaratish muhim. Bu esa o'quvchilarning nafaqat lug'at boyligini oshiradi, balki ularni ingliz tilida fikrlashga ham o'rgatadi. O'qituvchilarning pedagogik yondashuvi ham muhim ahamiyatga ega. Har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini inobatga olib, ularga mos uslubda ta'lim berish kerak. Ota-onalar ham bu jarayonda faol ishtirok etishlari lozim. Uy sharoitida bolalar bilan ingliz tilida muloqot qilish, ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish o'quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi. Biroq, zamonaviy pedagogik metodlar, interfaol ta'lim texnologiyalari va motivatsion yondashuvlar orqali bu muammolarni hal qilish mumkin. "Yangi O'zbekistonni bunyod etish uchun biz avlodlarimizni zamonaviy bilim va kasb-hunar bilan qurollantirishimiz zarur", deb ta'kidlagan Prezidentimizning fikrlaridan kelib chiqib, boshlang'ich ta'limda chet tillarni o'rgatish samaradorligini oshirishga e'tibor qaratishimiz lozim. Muvaffaqiyatli

³ <https://pedagoglar.org/03/article/view/6618>

ta'lim jarayoni uchun o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalarning hamkorligi nihoyatda muhimdir. Shu bois, boshlang'ich sinflardan o'q ingliz tilida gapirish ko'nikmalarini shakllantirishga katta e'tibor qaratish zarur. Ana shundagina yosh avlod kelajakda xalqaro maydonda o'z o'rnini topa oladi va mamlakatimizning taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «CHet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1875son Qarori. – Xalq so'zi. – № 240 (5660). – Toshkent, 2012.
2. Qosimova, N. (2021). Boshlang'ich sinflarda chet tilini o'qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2023). Chet tillarni o'qitish bo'yicha yangi strategiyalar. Toshkent
4. Elmurodova, S. S. (2021). Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishning samarali usullari. Oriens, 1(4), 627-631.
5. 7. "Teaching Speaking: A Holistic Approach" – Christine C. M. Goh, Anne Burns
6. Sayliyeva, M. M., & To'rayeva, G. T. (2023). Raqamli texnologiyalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy ko'nikmasini shakllantirish. TDPU Konferensiyasi, 1(1), 414-416.
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktab-o-quvchilarining-chet-tilida-gapirishko-nikmasini-rivojlantirish-yo-llari/viewer>
8. <https://pedagoglar.org/03/article/view/6618>
9. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalq ta'limi tizimini rivojlantirish bo'yicha ma'ruzalaridan rasmiy ma'lumotlar. www.president.uz (<https://www.president.uz/>)